IRFAN
AKADEMIYASI
ILM • TA'LIM • TARAQQIYOT


RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILM, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR
UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

OKTABR

TOSHKENT
O'ZBEKISTON



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Salayeva Muborak Saburovna

Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasi professori

Shodmonova Nilufar Maxmudovna

Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ichta'lim) mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.23296725

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf yoshidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga moslashtirish, o'qitish metodikasini modernizatsiya qilish va inklyuziv ta'lim sifatini oshirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bola, moslashtirilgan dastur, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiy integratsiya.

Boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berish tizimini takomillashtirish faqatgina moddiy baza bilan cheklanmay, balki o'qitish metodikasini insonparvarlashtirish va kreativ yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Inklyuziv yondashuv nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki butun sinf jamoasida bag'rikenglik va hamdardlik fazilatlarini shakllantiradi. Jahon ta'lim hamjamiyati har bir bolaning individual ehtiyojlarini tan olish va ularga mos sharoit yaratishni ustuvor vazifa deb biladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'limning huquqiy kafolatlari belgilab berilishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishda yangi metodikalarni talab etmoqda.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda psixofiziologik rivojlanishning o'ziga xosligi shundaki, ularda o'yin faoliyati hali ham yetakchi o'rinni egallaydi. Shu sababli, didaktik o'yinlar orqali ta'lim berish – bu bolalarning kognitiv to'siqlarini yengish va ularni bilim

olishga qiziqtirishning eng samarali yo‘lidir. Boshlang‘ich sinf davri bolaning ijtimoiy moslashuvi va fundamental bilim ko‘nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Biroq, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv dasturlarini moslashtirish tizimini yanada takomillashtirish bugungi kunda pedagogik zaruriyat hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv samarali bo‘lib, didaktik o‘yinlar ushbu yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin faoliyati boshlang‘ich yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining diqqat, xotira, tafakkurining rivojlanishini faollashtiradi. Didaktik o‘yinlar orqali berilgan axborot an’anaviy tushuntirishga nisbatan yaxshiroq o‘zlashtiriladi, chunki o‘yin jarayonida ko‘p kanalli vizual, eshituv, kinestetik idrok faol ishtirok etadi.Shu bilan birga alohida ehtiyojli bolalarda motivatsiya muammolari ko‘p uchrashi sababli, o‘yin texnologiyalari ichki o‘quv motivatsiyasini oshirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotlar didaktik o‘yinlar nutq rivoji sust bo‘lgan bolalarda leksik va kommunikativ ko‘nikmalarni sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi. Didaktik o‘yinlar tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni ta’minlab, har bir o‘quvchining rivojlanish darajasi va ehtiyojiga mos topshiriqlarni tashkil etish imkonini beradi. O‘yin faoliyati ijtimoiy o‘zaro ta’sirni kuchaytirib, alohida ehtiyojli bolalarda ijtimoiylashuv va moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Mayda motorika va sensor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi didaktik o‘yinlar nevropsixologik rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Didaktik o‘yinlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammo yechish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda an’anaviy ta’lim usullari barcha o‘quvchilar uchun bir xil yondashuvni nazarda tutadi, bu esa alohida ehtiyojli bolalarning o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Tizimni takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi lozim:

Individual ta’lim trayektoriyasi: har bir bola uchun uning imkoniyatlaridan kelib

chiqib individual ish rejalarini tuzish.

Didaktik o'yinlar va vizualizatsiya: boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavhum tushunchalarni shakllantirish uchun ko'rgazmali qurollar va o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish.

Korreksion-pedagogik yordam: dars jarayoniga maxsus pedagog va psixologlarni tizimli jalb etish.

Didaktik o'yinlar — bu o'qitish maqsadini ko'zlagan, ma'lum qoidalar asosida tashkil etilgan faoliyatdir.

Ilmiy jihatdan uning quyidagi funksiyalari isbotlangan:

- ***korreksion funksiya:*** nutq nuqsonlarini to'g'rilash, mayda motorikani (qo'l barmoqlari harakatini) rivojlantirish.
- ***motivatsion funksiya:*** bolada "men eplay olaman" degan ishonchni shakllantirish.
- ***ijtimoiy funksiya***: tengdoshlari bilan muloqot qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini o'rgatish

Psixologik qulaylik: O'yin vaziyatida bola "xato qilishdan" qo'rqmaydi, bu esa inklyuziv ta'limdagi eng katta to'siq — qo'rquv va tortinchoqlikni yengishga yordam beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan sinflarda maxsus pedagog bo'lish o'quv samaradorligini 25-30% ga oshiradi. Shuningdek, dars jarayonida axborot texnologiyalari: maxsus dasturlar, audio-vizual vositalar orqali materialni taqdim etish bolaning darsga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birgalikda ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni kuchaytirish "uy-maktab" zanjirini yaratilishi muhum ahamiyatga ega. O'z navbatida o'qituvchilarning inklyuziv kompetentligini oshirish bo'yicha treninglar tashkil etishib ularning salohiyatini yuksaltirish maqsadga muvofiq. Didaktik o'yinlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasini tezlashtiradi va o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yaqin muloqot ga zamin bo'ladi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiyning ta'limotiga ko'ra, bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson o'z navbatida ijtimoiy to'siqlarni keltirib chiqaradi. ATEB bolalarda, odatda, quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

✓ diqqatning beqarorligi: ularda bir faoliyat turiga uzoq vaqt diqqatni jamlash qiyin.

✓ sensorik idrokning sustligi: atrof-muhitdagi ranglar, shakllar va tovushlarni tahlil qilishda qiynaladilar.

✓ irodaviy zo‘riqishning pastligi: o‘quv topshiriqlarini oxirigacha yetkazishda sabrning yetishmasligi.

Didaktik o‘yin aynan mana shu "nuqsonli" jihatlarni kompensatsiya qilishga yordam beradi. O‘yin bolani majburiyatdan ozod qiladi va uni tabiiy qiziqish orqali bilim olishga undaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘yinlarni qo‘llash texnologiyasi: Inklyuziv sinfda o‘yin qoidalari soddalashtirilgan bo‘lishi va har bir bola, imkoniyatidan qat’i nazar, g‘oliblik hissini tuyishi shart. Shu bilan birga har bir o‘yin vizual materiallar rangli rasmlar, maketlar bilan ta’minlanishi shart.

O‘yinlar bolaning charchash darajasiga mos bo‘lishi kerak (10-15 daqiqadan oshmasligi tavsiya etiladi). O‘qituvchi o‘yin jarayonida faqat nazoratchi emas, balki bolaning teng huquqli hamkoriga aylanishi lozim.

Boshlang‘ich sinf darslarida: ona tili, matematika, tabiatshunoslik quyidagi o‘yin turlaridan foydalanish yuqori natija beradi:

1. "Sensorik loto" (Matematika va Tabiatshunoslik uchun):

Bolalarga turli geometrik shakllar yoki tabiat elementlari beriladi. Ular tegishli shakllarni topish orqali fazoviy tafakkurni rivojlantiradilar.

2. "So‘zlar zanjiri" (Ona tili uchun):

Nutqida nuqsoni bor bolalar uchun so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish yoki tovushlarni ajratishga qaratilgan harakatli o‘yinlar nutq markazlarini faollashtiradi.

3. "Raqamli labirint":

Mantiqiy izchillikni o‘rgatish orqali bolaning aqliy operatsiyalarini (analiz va sintez) yaxshilaydi.

4.Sensor o‘yinlar:

“Sehrli xaltacha” (buyumlarni ushlab ko‘rib topish). Bu sezgi a’zolarini rivojlantiradi.

Intellektual o‘yinlar: “Ortiqchasini top”, “Zanjir” o‘yinlari mantiqiy fikrlashni shakllantiradi.

Harakatli-didaktik o‘yinlar: Diqqatni jamlashga o‘rgatadi (masalan, “Qizil-yashil” o‘yini).

O‘tkazilgan pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar qo‘llanilgan darslarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning faolligi 40% ga oshadi. An’anaviy darsda o‘zlashtirish 55-60% ni tashkil etgan bo‘lsa, o‘yin texnologiyalari bilan bu ko‘rsatkich 80-85% gacha ko‘tarilishi ilmiy tajribalarda o‘z isbotini topgan. Bu bolaning psixologik holati yaxshilanishi va darsga bo‘lgan qo‘rquvning yo‘qolishi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar alohida ehtiyojli bolalar uchun shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki ularning salohiyatini ochib beruvchi “kalit”dir. Didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinflarda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limida samaradorligi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan, kompleks rivojlantiruvchi pedagogik vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Talim togrisida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5013003
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-sonli "Alohida ta’lim
3. ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
4. Salayeva M.S., Nurullayeva D.K. Inklyuziv ta’lim sifatini oshirish istiqbollari / “Yangi O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. III qism.- B.404-408.
5. Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Nogironli bo‘lgan shaxslarning ijtimoiylashuvini ta’minlashning ahamiyati / “Yangi O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. III qism.- B.408-412.
6. Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Shaxs ruhiy salomatligiga xavf soluvchi omillar / “Yangi O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari, yechimlari va

istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. III qism.- B.411-416.

7. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Psixologlar faoliyatida bolalar salomatligini saqlovchi va shaxsini rivojlantiruvchi raqamli manbalar kolleksiyalarini ishlab chiqish zaruriyati / "Мактабгача таълимда давлат ва нодавлат секторини ривожлантириш: янги шакллар ва таълим мазмуни" мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / Низомий номидаги ТДПУ. - Тошкент. 2020 йил 13 май.– Электрон тўплам. - Б.303-305.
8. Salayeva M.S., Abduhakimova M. (BT S/5 201-guruh) Psixodiagnostik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonidagi muammolar / "XXI аср шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар" мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь.
9. Salayeva, M. S., & Abduhakimova, M. (2023). Psixodiagnostik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonidagi muammolar // *Results of National Scientific Research International Journal*, *2*(1). -Pp. 69-79. Retrieved from https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/article/view/1470
10. Salayeva M.S., Asrorova M.A. Depressiya holatlarida shaxs ruhiyatining buzilishi va xulq-atvorning o'zgarishi psixologik muammo sifatida / Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo'llari ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. O'zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. - T.: "QK Akademiyasi", 2023. - B. 253-256.
11. Salayeva M. S., Abduhakimova M. Psixodiagnostik tekshiruv jarayoninning muhim jihatlari / Psixologik xizmatning dolzarb muammolari va ularni yechish yo'llari ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. O'zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi. - T.: "QK Akademiyasi", 2023. - B. 211-214.
12. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // *Scientific Progress* Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN:

2181-1601. Pages 380-383. http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf

13. Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Asr kasalligi: depressiyaga qarshi qanday kurashish mumkin? / "Yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayonida psixologik etuk-likni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari" mavzusi-dagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiel-lari. – T.: TDPU, 2023. – B.1121-1124.
14. Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Psixolog pedagogik jarayondagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qiluvchi mediator sifatida / 2-Respublika iqtidorli talabalar ilmiy konferen-siyasi materiallari to'plami. Toshkent amaliy fanlar universiteti. -B. 174-181.
15. Salayeva M.S., Raxmonova Z.R. Psixosomatika psixologik muammolarni hal qiluchi yo'nalish sifatida / 2-Respublika iqtidorli talabalar ilmiy konferen-siyasi materiallari to'plami. Toshkent amaliy fanlar universiteti. -B. 11-15.